

Investitsiya jalb qilish usullari, oilaviy tadbirkorlikni kreditlash

Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakultetida Turonbank mutaxassilari tomonidan navbatdagi seminar tashkil etildi. Seminarda Turonbankning Chakana xizmatlar ko'rsatish departamentini xalqaro pul o'tkazmalari bo'lim boshlig'i Talipov Alisher Kuchkarovich taqdimot qildi. Alisher Kuchkarovich 2011-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti ning Iqtisodiyot va menejment yo'nalishini tugatgan, Toshkent moliya institutida ikkinchi ta'lim olgan va Rossiya federatsiyasining Sank Peterburg davlat iqtisodiyot univesitetida magistraturani tugatgan.



MGIMO institutida stajirovka o'tgan, Germaniya davlatida xizmat safarida bo'lganligi uchun taqdimot juda qiziqarli, motivatsiyaviy bo'lganligi sababli talabalar uchun foydali bo'ldi. Taqdimotda inson o'z taqdirini yoshlikdan o'zi yaratishgan bor kuch g'ayratini yo'naltirish muhim ekanligini seminar ishtirokchilari e'tiboriga yetkazdi.

TIQXMMI matbuot xizmati